

PEDAGOGIK AMALIYOTLAR ASOSIDA OLIY TA'LIM MUASSASASI O'QUV JARAYONLARINI SHAKLLANTIRISH MASALALARI

Abduraxmonova Maftuna Sharofjon qizi

Nizomiy nomidagi TDPU, Umumiy pedagogika kafedrası o`qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada ta`limda innovatsion pedagogik texnologiyalarning mazmuni, ular orqali oliy ta`lim muassasasi o`quv jarayonlarini takomillashtirish masalalari yoritilgan. Pedagogik texnologiyalarning ta`lim jarayonidagi tasnifiy belgilari va metodika bilan orasidagi farqli jhatlari keltirilgan.

Kalit so`zlar: Pedagogik texnologiya, ta`lim-tarbiya, metodika, mustaqil fikrlash, pedagogik jarayon, vosita, maqsad.

KIRISH

Mamlakatimizning taraqqiy etgan mamlakatlar qatoridan o`rin olishi uchun aholi ta`limini jadallashtirish va uning samaradorligini oshirish maqsadi ham ilg`or pedagogik texnologiyalardan foydalanishimizni talab etmoqda. Shuning uchun eng muhim strategik yo`nalish ta`lim muassasalarining innovatsion faoliyati hisoblanadi. Bu esa barcha ta`lim muassasalarida, ayniqsa ijodkor, yuqori salohiyatli mutaxassis kadrlarni tayyorlovchi oliy ta`lim muassasalarida innovatsion texnologiyalarga asoslanib faoliyat olibborish bugungi kunning muammolaridan biri sanaladi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini o`quv jarayoniga joriy etishko`lamini kengaytirish, bu yo`nalishda ilg`or tajribalarni tadbiiq etish, harbir fan bo`yicha bu sohada aniq rejalarini tuzish va amalga oshirish darslik, o`quv qo`llanmalari va dasturlar, ma`ruza matnlarini elektron disketlarga ko`chirish, ular bilan har bir talabani ta`minlashga erishish, ilmiy va ilmiy-metodik ishlarda, shuningdek o`quv-tarbiya jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalarning keng joriy etilishiga erishish, ta`lim tizimini zarur axborot vositalari bilan yetarli darajada ta`minlash, ta`lim muassasalarini kommunikatsion tarmoqlarga bog`lash kabi vazifalar muhim hisoblanadi [1].

Pedagogik texnologiya tushunchasiga Yevropa olimlarining turli xil qarashlarini keltirish mumkin: V.P.Bespalkoning fikricha, "Pedagogik texnologiya - bu o`qituvchi mahoratiga bog`liq bo`lmagan holda pedagogik muvaffaqiyatni kafolatlay oladigan o`quvchi shaxsini shakllantirish jarayonining loyihasidir" [2].

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Hozir ta`lim-tarbiya sohasida rivojlanib borayotgan yo`nalishlardan biri - innovatsion pedagogik texnologiyalarni o`quv jarayonida qo`llash bo`lib, uni amalga oshirish dolzarb vazifalardandir. Ma`lumki, ta`lim-tarbiya jarayoni katta avlod tomonidan o`z bilim va tajribalarini o`sib kelayotgan avlodga o`rgatishdan iborat bo`lib, bu jarayonda, asosan, inson hayoti uchun zarur axborotlarni avloddan-avlodga uzatish amalga oshiriladi. Insoniyat hayoti axborotlar bilan cham barchas bog`liq. Boshqacha aytganda, insonning har bir harakati axborot olish va uzatish yoki undan foydalanish, uni o`rganish, o`zlashtirish, saqlash va boyitishdan iborat.

Pedagogik texnologiya - ta'lim metodlari, usullari, yo'llari hamda tarbiyaviy vositalar yig'indisi va u pedagogik jarayonning tashkiliy-uslubiy vositalari majmuidir. Pedagogik texnologiya o'z oldiga ta'lim shakllarini optimallashtirish vazifasini qo'yuvchi, butun o'qitish va bilimlarni o'zlashtirish jarayonini texnik resurslar va odamlarning o'zaro munosabatlarini hisobga olgan holda yaratish, qo'llash va aniqlashning tizimli metodidir. Bu esa ma'lumotlarni o'zlashtirish uchun qulay shakl va usulda uzatish va o'zlashtirish jarayonidan iborat.

Pedagogik texnologiya ta'lim-tarbiya jarayoni sifatida ishtirokchilarning faoliyatlari orqali amalga oshiriladi. Bu jarayonning pirovard maqsadi barkamol insonni shakllantirish va rivojlantirish bo'lib, asosan quyidagilardan tarkib topadi [3]:

- ta'lim-tarbiya berish;
- axborotlarni avloddan-avlodga uzatish;
- mustaqil fikrlashga o'rgatish;
- bilim, ko'nikma, malakalarni o'rgatish va o'zlashtirilishiga erishish;
- turli metodikalarni qo'llash va takomillashtirish;
- diagnostika, monitoring olib borish;
- ta'lim-tarbiya jarayonida insonparvarlik, xalqparvarlik, mafkuraviy tamoyillarga asoslanish;
- o'quvchining tayyorgarlik darajasini, psixologik, fiziologik, yosh xususiyatlarini, gigienik talablarni hisobga olish;
- ta'lim menejmenti, marketing talablari va xulosalarini, ijtimoiy motivlarni hisobga olish.

Hozirda pedagogik texnologiyalarning turli yo'nalishlari mavjud bo'lib, ulardan asosiylari empirik, kognitiv, evristik, kreativ, inversion, integrativ, adaptiv, inklyuziv pedagogik texnologiyalardir. Bu yo'nalishlarning asosiy xususiyatlari quyidagicha.

Empirik - sezgi a'zolari orqali bilim olish. Bu texnologiyada asosiy e'tibor sezgi a'zolarining tabiiy rivojlanganlik imkoniyatlariga tayangan holda bilim berish va ularni yanada takomillashtirib borishga qaratiladi.

Kognitiv - atrofdagi olam to'g'risidagi bilimlar doirasini kengaytirish texnologiyasi. U tabaqalash (tarkibiy qismlarga ajratib o'rganish) tafakkurini shakllantiradi, bilish extiyojlarini rivojlantiradi.

Evristik - yo'naltiruvchi savollar berish yo'li bilan ta'lim berish tizimi. Topqirlik, faollikni rivojlantirishga xizmat qiluvchi, o'quv- izlanish ta'lim metodi bo'lib, optimallashtirish (bir necha variantlardan eng ma'qulini, mosini, muvofiqini tanlash) tafakkurni rivojlantiradi.

Kreativ - tadqiqot xarakteriga ega bo'lib, o'quvchilarda maqsadga yo'naltirilgan ijodiy tafakkurni jadal rivojlantiradi.

Adaptiv - axborotlarni va ulardan foydalanish jarayonini o'rganish hamda o'rgatish uchun qulaylashtirish, moslashtirish asosida kutilgan natijaga erishish.

Inklyuziv - o'qituvchi bilan o'quvchining o'zaro munosabatlarida tenglik asosida ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil kilish. Hozirda pedagogik texnologiyaning yuqorida aytilganlardan tashqari mutaxassislar tomonidantajriba-sinovlar olib borilayotgan boshqa yo'nalishlari ham mavjud.

O'quv jarayonlarida pedagogik texnologiyalarni quyidagi belgilariga ko'ratanif qilinadi [4]:

- ✓ qo'llanish darajasiga ko'ra;
- ✓ falsafiy asosi bo'yicha;
- ✓ asosiy rivojlantiruvchi omili bo'yicha;
- ✓ o'zlashtirish konsepsiyasi bo'yicha;

- ✓ shaxsiy belgi-sifatlariga ko'ra yo'nalganligi bo'yicha;
- ✓ mazmun xususiyatlari bo'yicha;
- ✓ boshqaruv turi bo'yicha;
- ✓ bolaga yondashuv bo'yicha;
- ✓ ko'p qo'llaniladigan metodlari bo'yicha;
- ✓ ta'lim oluvchilar toifalari bo'yicha.

XULOSA VA MUNOZARA

Innovatsion texnologiyalar asosida darslarni tashkil etishdan maqsad: har bir shaxsning to'laqonli ta'lim olishida boshqalar bilan teng huquqliligi va ta'lim olishning ochiqligini ta'minlash, uzluksiz ta'lim tizimida yangi sifat ko'rsatkichlariga erishish, yangi ta'lim resurslarini jalb qilish va ulardan samarali foydalanish asosida uzluksiz ta'lim tizimida samarali me'yoriy huquqiy va tashkiliy- iqtisodiy mexanizmlarni shakllantirish, davlat va jamiyatning qo'llab-quvvatlashi negizida ta'lim tizimi xodimlarining ijtimoiy maqomi va kasbiy kompetentligini rivojlantirish, ta'lim tizimining davlat va jamoatchilik boshqaruviga asoslanganlik tamoyiliga muvofiq ta'lim jarayoni ishtirokchilari - talabalar, pedagoglar, ota-onalar va ta'lim muassasalarining rolini oshirishdan iboratdir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Valijonov R va b. Menejment asoslari. – T.: Sharq, 2012.
2. Djuraev R.X., Turg'unov S.T. Ta'lim muassasalarini boshqarishda menejmentning asosiy tushunchalari. – T.: Fan, 2016.
3. Rasulova Z.D. (2020). Kelajakdagi ijodiy fikrlash o'qituvchilarini rivojlantirishning didaktik asoslari. Yevropa fani, jild. 51, yo'q. 2-2, bet. 65-68.
4. Qulieva Sh.X., Rasulova Z.D. (2016). O'qituvchining ta'limdagi innovatsion faoliyati. Yosh olim, 8-son (112), 978-979-betlar.
5. Рашидов Диловар Нажмиддинович, & Холбоев Йигитали Авганович (2022). Корхона ва ташкилотларда ижтимоий ҳимояга муҳтож шахслар учун иш ўринларини йўналишлар кесимида захиралашнинг самарадорлигини ошириш. Трансформация моделей корпоративного управления в условиях цифровой экономики, 1 (1), 73-78. doi: 10.24412/cl-36899-2022-1-73-78
6. Qaxhorov S.K., Rasulova Z.D. (2020). Kompyuter ta'lim texnologiyalari o'qitish jarayonini takomillashtirishning muhim omili sifatida. Zamonaviy innovatsiyalar. 36:2, 44-46-betlar.